

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

Son 11 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Lutfillova Xamida</i>	<i>Murodillova</i>	Лутфиллаев Ҳамидаилло Муродиллаевич
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ		
ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА		12-17
<i>Ezhambergenov Xaitboy</i>	<i>Xamidulla</i>	Эзгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ		
ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)		18-25
<i>Esonov Ziyodbek</i>	<i>Yuldashevich</i>	Esonov Ziyodbek Yuldashevich
QO'QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI		26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i>		Mamatqulov Bekzod
O'ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI		
VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI		32-38
<i>Asadova Ra'no</i>	<i>Baymanovna</i>	Asadova Ra'no Baymanovna
O'ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI: HAMKORLIK		
ISTIQBOLLARI		39-42
<i>Saidova Raxima</i>		Saidova Raxima
O'ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI		43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich</i>	<i>Ergasheva Ra'no</i>	Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI		49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i>		Iriskulov Bekzod Jaxongirovich
TURKİSTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOİR AYRIM		
MULOHAZALAR		56-60
<i>Mirsoatova Sayyora</i>	<i>Turg'unovna</i>	Mirsoatova Sayyora Turg'unovna
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI		61-66
<i>Luhmonov Shaxzod</i>	<i>Sayfiiddin</i>	Luhmonov Шаҳзод Сайфиддин ўғли
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-		
ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР		67-71
<i>Axmedov Bekzod</i>		Axmedov Bekzod
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH		
TADBIRLARI		72-75
<i>Mamatov Jasurbek</i>	<i>Qodirqul o'g'li</i>	Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI		
(UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)		76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek</i>	<i>Toshpo'latovich</i>	Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY		
YO'NALISHLARI		81-88

Ибрагимов Раҳмон Зиёдуллаевич
 ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ
 РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ 89-93

Akrorov Botir Bakhodirovich
 ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА
 В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ 94-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich
 IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI
 RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH 100-108

Muxitdinova Kamola Alisherovna
 «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN
 MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI 109-115

Madraximov Qaxramon Egamberganovich
 INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA
 ERISSHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA 116-125

Кетманов Авазбек Маликович
 КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ
 ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 126-134

Xolmirzayev Abdulkamid Xapizovich
 KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI 135-142

Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon oglisi
 MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING
 OF GOODS AND SERVICES 143-152

Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi
 MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI
 TASNIFI 153-160

Sharipov Komil
 MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI 161-170

Rajabov Navruzbek Azimjonovich
 MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI
 QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 171-179

Mirzaeva Shirin Nodirovna
 SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN
 UZBEKISTAN 180-187

Pardayev Rasulbek Islomovich
 TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING
 TAHLILI 188-196

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li
 SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH
 XUSUSIYATLARI 197-202

<i>Rahimov Bahromjon Ibrahimovich</i>	
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i>	
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i>	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI	234-243
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i>	
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i>	
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i>	
NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OVALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i>	
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i>	
MAHMUD AZ-ZAMAHSARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i>	
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i>	
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI	283-287

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ 288-295

Daliyeva Madina

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES 296-300

Paluanova Khalifa

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES 301-306

Равшанов Махмуд

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО 307-311

Bekbergenova Gulaim Aijarikovna

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS 312-318

Normamatov Farrux Komiljon o'g'li

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI 319-322

Gulamova Dilobar Imamkulovna

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI 323-326

Xolmuxamedov Baxtiyor

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI 327-334

Chorieva Iroda Kurbonboevna

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 335-339

Ganiyeva Orzigel Xayriddinovna

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUksiya: SHAKL VA MAZMUN MASALASI 340-345

Расулова Камола

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ 346-353

Омонов Турғунбой

“СУФУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ 354-358

Хакбердиева Сайёра Фармоновна

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ 359-364

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 365-370

Gubaydullin Artur Faridovich

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S “GOOD OMENS” 371-376

Abdullaeva Sevara Makhsudalievna

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES 377-381

<i>Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi</i>	
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI	382-385

<i>Yuldasheva Nigora Baxodirovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI	386-390

<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i>	
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHЛИLI	391-396

12.00.00 – YURIDIК FANLAR

<i>Рузметов Хайрулла</i>	
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ	397-402

<i>Ачилова Лилия Илхомовна</i>	
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА	403-410

<i>Abdubannayev Umidjon</i>	
AXBOROTGA BO'LGАН INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	411-421

<i>Халиқулов Комолиддин Носирович</i>	
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕRENИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ	422-427

<i>Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли</i>	
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР	428-433

<i>Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли</i>	
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИННИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ	434-439

<i>Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich</i>	
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJY TAJRIBA	440-446

<i>Алиев Асилбек Кадирович</i>	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ	447-451

<i>Нодирахон Абдурахманова</i>	
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	452-462

<i>Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич</i>	
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ	463-469

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Xusanova Mohira</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH	470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i>	
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TALABALARING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGGATISH	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i>	
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i>	
TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i>	
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKİSTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i>	
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i>	
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i>	
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i>	
TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i>	
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI	565-568

Received: 31 October 2024

Accepted: 5 November 2024

Published: 15 November 2024

Article / Original Paper

THE HISTORY OF THE STUDY OF THE AFROSIYAB ARCHAEOLOGICAL SITE

Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich

Namangan state university, Associate professor of the Department of "Social sciences", PhD.
E-mail: yosin-89@yandex.ru

Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi

Namangan state university

Abstract. This article analyzes the geographical location and the history of archaeological research of the Afrosiyab monument, which is considered one of the ancient settlements in Samarkand region. The development of painting art in the early Middle Ages on the scale of Central Asia was shown in Afrosiab wall paintings, and information was also given about the rulers of Sogd and their way of life.

Keywords: Afrosiyab, murals, Islamic flowers, "kufic" writing, peppercorns, ceramic pipe, iron furnace, glass containers.

AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI

Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich

Namangan davlat universiteti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrasи dotsenti, PhD.

Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi

Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyatidagi qadimiy manzilgohlardan biri hisoblangan Afrosiyob yodgorligining geografik o'rni va arxeologik o'rganilish tarixi tahlil qilingan. Ilk o'rta asrlardagi rang-tasvir san'atining O'rta Osiyo miqyosidagi rivoji Afrosiyob devoriy suratlarda namoyon bo'lgan. So'g'd hukmdorlari va ularning turmush tarzi haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Afrosiyob, devoriy suratlari, islamiy gullar, "kufiy" yozuvi, qalampirmunchoq, sopol quvur, temir o'choq, shisha idishlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N07>

Kirish. O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarda arxeologik tadqiqotlarning faollashuvi va ularning ilmiy samarasi tufayli, O'zbekiston arxeologiyasi dunyo ilm-fan darajasiga ko'tarildi. Bu natijalar, o'z navbatida, arxeologiya sohasida dunyodagi yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlik o'rnatishga, teng huquqli shartnomalar tuzishga zamin yaratdi. Ayni paytda, O'zbekiston hududida – Avstraliya, AQSH, Germaniya, Italiya, Polsha, Chexiya, Rossiya, Fransiya, Yaponiya kabi davlatlarning arxeolog olimlari bilan hamkorlikda, xalqaro miqyosda, arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda.

2019-yil 4-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 846-sonli Qarorida mamlakat hududidagi arxeologik yodgorliklarda qidiruv va qazuv ishlarini amalga oshirilishi uchun ma'lumotlar berib o'tilgan [12].

Shunday qarorlar natijasida bugungi kunda Fransiya Respublikasi Ilmiy Tadqiqotlar Milliy Markazi (UMR – 126.6) bilan hamkorlikda tashkil etilgan O'zbekiston – Fransiya – Sug'diyona xalqaro ekspeditsiyasi qadimgi Afrosiyob va Ko'ktepa shahar yodgorliklarida keng miqyosda arxeologik qazishma ishlari olib bormoqda.

Tadqiqot. Afrosiyob yodgorligi hozirgi Samarqandning shimoli-sharqida joylashgan. Obyekt mil.avv. VII-XIII asrlarga taalluqli bo'lib, maydoni 219 getktarni tashkil etadi. Shahar dastlab tuproq bilan, keyinchalik xom g'ishtdan qurilgan devor bilan o'rabi olingan. Devorning ma'lum joylarida o'q otish uchun mo'ljallangan shinaklari bo'lgan. Shimolda joylashgan, 19 getktarni tashkil qilgan ark qismi qo'shimcha ravishda ham mustahkamlangan. Ark qismining qurilish ishlarida mil.avv. VIII-VII asrlar uchun g'oyat xususiyatlari bo'lgan guvalasimon g'ishtlardan foydalanilganligi aniqlangan. Afrosiyobning umumiy 4 ta darvozasi bo'lib, shimolda – Buxoro, sharqda – Xitoy, janubda – Kesh, g'arbda – Navbahor darvozalari nomi bilan atalgan. Shaharning dastlabki tarixi haqida yozma manbalarda ma'lumotlar kam uchraydi. Bu yerda o'tkazilayotgan qazuv ishlari esa ma'lumotlar miqdorini ko'paytirmoqda.

Afrosiyob nomining kelib chiqishi haqida turli rivoyatlar mavjud. Masalan: A. V. Shishkinning yozishicha, XVII-XVIII asrlarda bu joyning nomi podsho Afrosiyob haqidagi afsonalar bilan bog'lanadi. Unga ko'ra, qadim zamonlardagi shahar uning rezidensiyalaridan biri bo'lgan. O'sha davrdan boshlab tepalik "Afrosiyob" degan nom bilan xalq orasida mashxur bo'lgan. Ushbu xaroba nomining lug'aviy ma'nosi va kelib chiqishi masalasida olimlar o'rtasida hozirgi kunga qadar ham bir fikrga kelinmagan. Ulardan haqiqatga yaqinroq keladigan fikrni Leningradllik mashxur so'g'dshunos olim V. A. Livshid aytadi: "Afrosiyob" – "apar" va "shavar" so'zlari birikmasidan iborat bo'lib, "qora suv ustidagi shahar" yoki "Siyob atrofidagi yerlar" degan ma'noni bildiradi [1. B. – 10].

Afrosiyob va uning topilmalariga qiziqish 1868-yilda Rossiya Imperiyasi tomonidan Samarqand bosib olingandan so'ng boshlangan. Bu yerdagi dastlabki qazuv ishlari bilan 1874-yilda mayor Borzenkov, 1883-yilda podpolkovnik V. V. Krestovskiy, 1884-1885-, 1895-yillarda sharqshunos olim N. I. Veselovskiy, 1904-yilda V. V. Bartold, 1905-, 1912-1913-yillarda V. L. Vyatkin kabi olimlar shug'ullangan [2. B. – 796].

Afrosiyobda o'tkazilgan qazishmalar vaqtida ham vayrongarchilikning izlari topilgan. Arablar istilosи davrida odam tasviri tushirilganligini ko'rib, islom dini ta'qiqlagan bunday suratlarni pichoq yoki biror o'tkir narsa bilan buzib tashlagan. Ancha vaqtgacha esa bunday joylarda hech kim turmagan. Shaharning hamma qismi bo'lmasa ham ma'lum qismi bir qancha vaqt kimsasiz xuvillab yotgan. Keyin samarqandliklar, ehtimol, vayron etilgan boshqa shahar va qishloqlarning aholisi ko'chib kelib, uni yana obod qilgan degan xulosalar keltiriladi. Arab xalifaligidan ozod bo'lish uchun olib borilgan kurash somoniylar davlatining tashkil topishi bilan tugallangan.

1919-yilda M. Ye. Masson va V. L. Vyatkin tadqiqot boshlagan joylarda qazish ishlari davom ettirilib, somoniylar saroyi xarobalari ochilgan. Izlanishlar natijasida ushbu davrga tegishli bo'lgan katta bir mahalla ochib o'rganilgan. V. L. Vyatkin qazishma ishlari o'tkazayotgan vaqtida devorga solingen suratning yaxshi saqlanmagan parchalarini aniqlagan. Afsuski

xodimlarning bu rasmlarni buzilishdan saqlash (konservatsiya) usulini bilmaganligi oqibatida u yetib kelmagan. Suratli suvoq qurib qolib to'kilgan, lekin undan nusxa olib qolingga edi. Devorda odam figuralarini tasvirlangan bo'lib, ular tagida esa yo'l-yo'l qilib naqsh berilgan [3. B. – 136]. 1925-, 1929-1930-yillarda V. L. Vyatkin Afrosiyobda qazish ishlarini davom ettiradi va turli davrdagi tarixiga oid ko'plab materiallarni to'playdi.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlari san'ati devoriy suratlar, haykaltaroshlik, turli taqinchoq buyumlari orqali izohlangan. Devoriy suratlar Dilbarjin (Afg'oniston), Varaxsha, Afrosiyob, Panjikentdan topib o'rganilgan bo'lsa, Kuyovqo'rg'on, Vaxsh vohasi, Chaqaloqtepa (Afg'oniston), Yerqo'rg'onдан turli hajmdagi haykallar, zargarlik buyumlari topib o'rganilgan. Umuman olganda, boy bezaklar, sopol, metal idishlar, devoriy suratlar, hatto kiyimlardagi tasvirlar bu davrda O'rta Osiyodagi tasviriy san'atning rivojidan dalolat bergen [4. B – 306].

Afrosiyob devoriy rasmlari qazilmalar natijasida topilgan mahobatli rang-tasvirning noyob na'munalaridan biri bo'lgan. O'zbek arxeologlari 30 ga yaqin saroy xonasini ochishga muvofiq bo'lgan, bu xonalarning ko'plari devoriy rasmlar, naqshlar bilan bezatilgan. Xona devorlariga ishlangan rasmlarda to'y marosimi, Sug'd hukmdorining xorijiy davlatlarning elchilarini qabul qilishi, bu elchilarning yo'ldagi sarguzashtlari, yirtqich hayvonlar bilan olishuv, ov manzalari, afsonaviy maxluqlar tasvirlangan. Ushbu devoriy suratlarning "Elchilar xonasi" deb nomlangan qismi qadimgi davlatlar tarixiga yangilik kiritishi oydinlashgan. Yanada aniqrog'i, devoriy suratda bir qator qadimiy davlatlar, jumladan, Koguryo davlatidan tashrif buyurgan elchilar surati ham tasvirlangan edi.

Afrosiyob devoriy rasmlari yagona bir mazmunga bo'ysundirilgan: markazda so'g'd hukmdori Varxuman turgan, an'anaga ko'ra, rassom uni boshqalarga nisbatan yirik ko'rinishda tasvirlab, hukmdorning buyukligini e'tirof etgan. Unga abadiylik, qaxramonlik baxsh etilgan holatda tasvirlagan. Afrosiyob devoriy rasmlari O'rta Osiyoda arablar istilosiga qadar mahobatli rang-tasvirning rivojlanganligi, Samarcand uning markazi bo'lganligini ko'rsatadi [5. B. – 256].

Ikkinchи jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti olimlaridan A. I. Terenojkin tomonidan yodgorlikda jiddiy dala tadqiqotlari o'tkazildi. Natijada uning eng pastki qatlamidan mil.avv. VI-V asrlarga taalluqli buyumlar, uyjoy xarobalari topiladi. Keyinchalik olib borgan ishlar u aniqlagan qatlamlarning mantiqiy ekanligini tasdiqladi, shu bilan birga, klassifikatsiyasini to'ldirish, ayrim davrlarning xarakteristikasini va sanasini o'zgartirish zaruriyatini tug'dirdi:

- I. Mil.avv. I ming yillikning o'rtasi;
- II. Mil.avv. III-II asrlar;
- III. Mil.avv. I asr va milodiy I asr;
- IV. Mil. II-III asrlar;
- V. Mil. IV asr va V asrning 1-rarmi;
- VI. Mil. V-VI asrlar;
- VII. Mil. VII asr va VIII asrning o'rtasi;
- VIII. Mil. VIII asr oxiri va IX asrning boshi;
- IX. IX-X asrlarning o'rtasi;
- X. XI asr;
- XI. XII va XIII asrning boshi.

1958-yildan boshlab O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi qadimiy shaharda muntazam ravishda qidiruv va qazuv ishlarini olib borishni jadallashtiradi. 1965-yilning bahorida Afrosiyobda ajoyib kashfiyat qilindi. Bu yerda VII asrda qurilgan boy va nufuzli feodallardan biriga mansub bo'lgan katta turar-joy binosi xarobasining bir qismi topildi. Ba'zi xonalarning devorlari suratlar bilan yoppasiga bezatilgan bo'lib, ularning qoldiqlari o'sha davrdagi mo'yqalam sohiblarining ajoyib san'atiga munosib baho berish imkoniyatini tug'diradi [3. B. – 11].

1965-1968-yillardagi qazishmalar davomida o'zbek arxeologlari 30 ga yaqin saroy xonasini ochishga muvaffaq bo'lganlar. Bu xonalarning ko'plari devoriy rasmlar, naqshlar bilan bezatilgan. Shulardan eng katta 11x11 m. va eng kichik 7x7 m. li xonalardagi rasmlar birmuncha yaxshi saqlangan. Xonalarning birida erkak va ayolning ark oldida o'tirgan xolati tasvirlangan. Katta xona devorlariga ishlangan rasmlar detallarga boyligi, saqlanib qolgan sug'd yozuvlari bilan ahamiyatlidir [2. B. – 799]. Saqlanib qolgan rasmlar tahlili o'rta asr mahobatli tasviriy san'atining g'oyaviy badiiy yo'nalishi, rassomning ish usullari va vositalari haqida, tafsilotlarga boy maishiy sahnalar, etnik ko'rinishlar o'sha davr haqida fikr yuritish imkonini beradi. Rassom devorni 3 qismga bo'lib, 2 chetki qismidan ensiz naqsh xoshiyasi ajratib olgan, asosiy qismga mavzuli tasvir ishlagan, voqealarni yuqorida kuzatayotgandek aks ettirgan. Bu tarzdagi devoriy suratlar maxobatli rang-tasvirning rivojlanganligini, Samarqand uning markazi bo'lganligini ko'rsatadi.

1966-yil 13-iyulda Afrosiyobni arxeologik jihatdan kompleks o'rganishni tashkil etish maqsadida O'zbekiston SSR hukumatining maxsus qarori qabul qilindi. Unga ko'ra, manzilgoh "arxeologik qo'riqxona" deb e'lon qilinib, uni o'rganish ishiga O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti bilan birga Toshkent va Samarqand universitetlari hamda Madaniyat vazirligining San'atshunoslik instituti ham safarbar etildi [5. B. – 66].

1967-1970-yillarda Yaxyo G'ulomov rahbarligida olib borilgan keng ko'lamlı arxeologik qazishmalar natijasida qadimgi madaniy qatlama materiallari Afrosiyobning boshqa joylaridan ham topildi [2. B – 796]. Qazuv ishlari bir necha metr qalinlikdagi madaniy qatlamlar qanday bo'lganligini ko'rishga, boylar va kambag'allar uylarini, savdogarlarning do'konlarini, ko'cha va maydonlarni, shoxona saroylar, ibodatxona, masjid va madrasalarni, mudofaa inshootlarini, shaharning suv bilan ta'minlash tizimi, hunarmandlarning ustaxonalarini va boshqa holatlarni aniqlashga yordam bergan.

Yaxyo G'ulomovdan so'ng Afrosiyobdagagi arxeologik qazishmalarga G. V. Shishkina va Sh. Toshxo'jayevlar rahbarlik qilgan. 1989-yildan yodgorlikni arxeologik jihatdan tadqiq etish ishiga fransuz arxeologlari Pol Bernar, Frans Grene va boshqalar jalb etiladi [5. B. – 67].

Arxeologik qazish ishlari natijasida kanallarning qoldiqlari topilgan va o'rganilgan. Bu yerdan aniqlangan ko'plab ariqlar ochiq bo'lib, chetlari pishiq g'ishtdan ishlab chiqilgan. Biroq suvlar sopol quvurlardan oqqan. Iflos suvlar esa maxsus quvurlar orqali shahar tashqarisiga chiqarib yuborilganligi ma'lum bo'lgan. O'rta asrlarda Afrosiyobda vodoprovod va kanalizatsiyadan keng foydalanilgan, aholi tozalik va gigienaga katta e'tibor qaratgan.

Keyingi yillardagi arxeologik ishlar Afrosiyobda hunarmandchilik, ishlab chiqarish yaxshi rivoj topgan markazlardan bo'lganligini ko'rsatib berdi. Bu yerdagi binolarni qazish vaqtida shisha idishlar va shishadan qilingan boshqa buyumlarning juda ko'p bo'laklari topildi.

Yodgorlikdan temir buyumlar tayyorlangan bino ham topilgan. Metal buyumlar yasaladigan ishxonalar uy-joy komplekslaridan biroz chetda joylashgan. Temirchilik o'choqlari, maxsus sopol vannachalar, quyish qoliplari mehnat qurollari bo'lib xizmat qilgan.

Olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida Afrosiyob kulollari tomonidan ishlangan bezirim, nafis sirli idishlar Islom dunyosida keng tarqalanganligi aniqlangan. Bu idishlar o'zining mohirona ishlanganligi, naqshlarining aniq va mazmundorligi bilan ajralib turadi. Kulollar dastlab arab istilosigacha bo'lgan san'at an'analariga asoslanib, keyinchalik ham turli ramzlar, arab alifbosida yozilgan ezgu niyatlar, xalq maqollari, shuningdek kabutar, burgut, xo'roz, ot, yo'lbars, sher tasvirlari, ov manzarasi hamda islimiy gullar bilan o'z buyumlarini bezatganlar. Kulollar sopol idishlardan tashqari, bir tomonida pilik uchun cho'zinchoq burunchasi bo'lgan yog'chiroqlar, shaqildoqlar, xamyonlar, suzg'ichlar, kuldonlar va ro'zg'orda ishlatiladigan boshqa buyumlarni ham tayyorlaganlar. Bezakda asosiy o'rinn tutgan kufiy yozuvlar, ayniqsa cho'zib yozilgan "Alif" va "Lom" ning uyg'unligi naqshning ta'sirchanligini oshirgan. Bu tarzdagi bezaklar idishlarning ko'rksamligini bo'rttirib ko'rsatadi. Bu uslublar hozirgi davrgacha yetib kelgan. Afrosiyob kulolchiligidagi bezaklar buyum shakliga mosligi, ranglarining yorqinligi va nafisligi bilan kishi diqqatini o'ziga jalgan etadi.

Arxeologik topilmalar Sug'd hududida paxta, jun va tabiiy ipakdan to'qilgan matolar qo'l mehnati orqali eng oddiy to'qimachilik dastgohlarda amalga oshirilgani ko'rsatilgan edi. So'g'd matolari Buyuk ipak yo'li orqali turli davlatlarga eksport qilingan, ayniqsa u Xitoyda yuqori baholangan. Chunki, oldinlari nafaqat ipak xom ashyosining o'zi, balki ipak matoning o'zi ham shu yerdan olib kelingan bo'lsa, ilk o'rta asrlardan boshlab ipak O'rta Osiyoning o'zida yetishtirilib, undan tayyorlangan matolar aholi ehtiyojini qondirishda Xitoy ipagini surib chiqqargan.

2014-yilda Afrosiyobdag'i devoriy suratlarni restavratsiya ishlari boshlangan. Bu ishni O'zbekiston Respublikasi hamda AQSh, Shveytsariya, Fransiya va Janubiy Koreya davlatlari ko'magida davom ettirishi aytib o'tilgan.

2015-yilda Janubiy Koreyaning "Shimoli-Sharqiy Osiyo tarixi" fondi ko'magida mazkur davlat tarixchi olim va mutaxassislari hamkorligida devoriy suratlarning vaqt ta'sirida yemirilgan qismlarini ham qayta tiklashga kirishilgan. Shuningdek, yana bir muhim ishga qo'l urilganki, bu O'rta Osiyo tarixida ilk marta va hatto dunyo tajribasida ham kamdan kam uchraydigan tajribadir. Janubiy Koreya va O'zbekiston olimlari hamkorligida to'liq ilmiy asoslangan holda qadimi Afrosiyob shahri o'sha davrda qanday bo'lgan bo'lsa, xuddi o'sha holatda qayta tiklangan. Aniqrog'i, qadimi shahar maketi va shahar ko'rinishining 3D formatdagi videolavhalari ham tayyorlangan.

Bugungi kunda Samarqandga tashrif buyurayotgan sayyoohlarning aksariyati "Afrosiyob" muzeyiga tashrif buyurib, yuqorida tasvirlarni hamda devoriy suratlarni tomosha qiladi.

Afrasiyob arxeologik yodgorligini o'rganish O'zbekiston tarixini chuqurroq anglashga imkon beradigan muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yodgorlikni o'rganish natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelish mumkin:

1. Afrasiyob shahrining qadimgi tarixi va rivojlanishi. Olib borilgan arxeologik qazish ishlari Afrasiyobning miloddan avvalgi II ming yillikdan boshlab yashab kelingan qadimgi shahar ekanligini tasdiqladi.

Arxeologik qatlamlarni o'rganish orqali shaharning turli davrlardagi rivojlanish bosqichlari, me'moriy uslublarning o'zgarishi va shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti to'g'risida aniq ma'lumotlar olindi.

Olib borilgan tadqiqotlar Afrasiyob shahrining xaroba bo'lishining asosiy sabablari haqida ma'lumot berdi. Bu sabablar orasida tabiiy ofatlar, bosqinchiliklar va boshqa ijtimoiy-siyosiy omillarni ko'rsatish mumkin.

2. Afrasiyob aholisining turmush tarzi va madaniyati. Uy-ro'zg'or buyumlari, oshxona anjomlari va boshqa topilmalar asosida Afrasiyob aholisining maishiy sharoiti, ovqat pishirish usullari va kundalik hayot tarzi haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Topilgan turli xil hunarmandchilik buyumlari Afrasiyob aholisining yuqori darajadagi hunarmandchilik mahoratiga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Shuningdek, boshqa hududlar bilan olib borilgan savdo aloqalari haqida ham ma'lumot olish mumkin.

Topilgan diniy ibodatga oid buyumlar va binolar Afrasiyob aholisining diniy e'tiqodlari haqida ma'lumot beradi.

Devor rasmlari, haykaltaroshlik asarlari va yozuv namunalari Afrasiyob aholisining badiiy ijodkorligi va madaniy darajasi haqida guvohlik beradi.

3. Afrasiyob va boshqa madaniyatlar bilan bo'lgan aloqalar. Afrasiyobda topilgan boshqa madaniyatlarga mansub buyumlar va bezaklar Afrasiyob aholisining boshqa xalqlar bilan bo'lgan madaniy aloqalari haqida guvohlik beradi.

Topilgan xorijiy savdo mollari Afrasiyobning Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan muhim savdo markazi bo'lganligini tasdiqlaydi.

4. Afrasiyobning o'zbek xalqi tarixidagi o'rni. Afrasiyob o'zbek xalqining shakllanishida muhim rol o'ynagan qadimgi shaharlardan biri hisoblanadi.

Afrasiyob o'zbek xalqining boy madaniy merosi hisoblanadi va u o'zbek xalqining tarixi va madaniyati haqida chuqurroq ma'lumot olish uchun muhim manba hisoblanadi.

Afrasiyob arxeologik yodgorligini o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar O'zbekiston tarixini qayta ko'rib chiqishga va yangi xulosalar chiqarishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek xalqining milliy ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va uning o'z o'tmishiga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Адабиётлар/Литература/References:

- Шорахимов Ш. Афросиёбга саёхат. – Т. “Ёш гвардия”. 1979. – 30 б.
- О'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Т. “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. 2000. – 879 б.
- Мўминов И. Самарқанд тарихи. – Т. “ФАН”. 1971. – 484 б.
- Sagdullayev A. O'zbekiston tarixi. – Т. “VNESHINVESTPROM”. 2021. – 624 б.
- Альбаум Л.И. Афрасиаб. – Т. “ФАН” 1969. – 330 с.
- Ultayeva F. O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asrlar urbanizatsiyasi. – Buxoro. “Durdona”. 2021. – 189 б.
- <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Afrosiyob>
- https://www.ares.uz/storage/app/uploads/public/625/047/oce/625047oceda5598877_2583.pdf
- Nag'matova S. Afrosiyob – o'tmish va bugunning noyob namunasi // Новости образования: исследования в XXI веке. №9 (100) част 36 апрель, 2023. – С. 954-957.
- Afrosiyobga kelgan koreys elchilari – qadimiy devorlaridagi suratlar nimalardan hikoya qiladi / kun.uz/02717669?q=%2Fuz%2F02717669

11. Sa'dullayev S. Ilk o'rta asrlardagi Afrosiyob devoriy suratlari // Academic Research in Educational Sciences. 2022, №3 (4). – B. 186-190.
12. Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasi qarori / lex.uz/docs/-4543266

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масьулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).